



MONBELYARD ZOTLI XAR XIL TANA TUZILISHDAGI SIGIRLARNING QIZLARINI YELIN O'LCHAMLARI

Erdanova Go'zal Mirulug'ovna,

Toshkent Davlat Agrar universiteti assistenti

Ruziev Raxmonqul Istamovich

Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi, bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada Monbelyard zotli sigirlar qo'sh maxsuldorli yo'nalishda bo'lib, har ikkala guruhda ham tossimon yelin tipiga mansub sigirlar uchramaganligi aniqlandi. Sut-go'sht tipidagi sigirlarning yelin aylanasi o'rtacha I, II, III laktatsiya davrlarida 108,2;116,5;125,0 sm–ni tashkil qilib, tengqurlari go'sht-sut tipiga nisbatan 13.52;6,01; 12 sm-ga, uzunligi bo'yicha 4,31;1,3; 4,25 sm-ga, eni bo'yicha 3,42; 2,79; 3,48sm-ga, oldingi yelin qismining chuqurligi bo'yicha 2,74; 2,9;5,3 sm-ga, orqa qismi chuqurligi bo'yicha 3.9; 3.1;3.37 sm-ga, yelinning shartli hajmi bo'yicha 556,8; 119,28; 501,5 sm³ –ga, oldingi so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 1,1;1.05;1,16 sm-ga, orqa so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 0,72;0,66;0,82 sm-ga tengqurlari go'sht-sut tipiga mansub sigirlardan ortiqcha bo'lganligi keltirilgan.

Summary: In the article, it was found that cows of the Montbelyard breed are double-fertile, and there were no cows of the pelvic udder type in either group. The average udder circumference of milk-meat type cows is 108.2; 116.5; 125.0 cm in the I, II, III lactation periods, and their circumferences are 13.52; 6.01; 12 cm, length 4.31; 1.3; 4.25 cm by 3.42 in width; 2.79; by 3.48 cm, 2.74 in the depth of the front part of the udder; 2.9; by 5.3 cm, the depth of the back part is 3.9; 3.1; by 3.37 cm, 556.8 according to the conventional size of the udder; 119.28; 501.5 cm³, the length of the front nozzles is 1.1; 1.05; 1.16 cm, the length of the rear nozzles is 0.72; 0.66; 0, It is stated that 82 cm is more than cows belonging to the meat-milk type

Olingan natijalar va munozaralar

Monbelyard zotli sigirlarning texnologik xususiyatlarini baholashda yelinning morfologik, funksional ko'rsatkichlari va zamonaviy sog'ish uskunalarda foydalanishga yaroqlilik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Respublikamizga olib kelingan monbelyard zotli sigirlar avlodlarini yelinining morfologik ko'rsatkichlariga yelin shakllari, uning uzunligi, eni, aylanasi, oldingi va orqa qisimlarining chuqurligi, so'rg'ichlarining shakli, uzunligi, diametri va boshqalar kiradi. (M.I.Ashirov, U.N.Nosirov, G.M.Erdanova, R.I.Ruziev)

Tajriba podalarida monbelyard zotli sigirlarning avlodlari ilk bor sigirlarning yelin o'lchamlarini, 2- shakl "Nasldor sigirlar kartochkasi", 4-sut shakl "Nazorat sog'im dalolatnomasi", 5 -sut shakl "Sigirlarning sut berish jadalligini aniqlash jurnali", 9-sut-shakl "Sigirlar eksterer va konstitutsiyasini baholash jurnalidan" foydalanib va yelin o'lchamlarini olish orqali laktatsiyaning 90 kunligiga qadar o'rganildi.

Tajribadagi sigirlarning har xil eksterer tana tuzilishiga ega monbelyard zotli sut-go'sht, go'sht-sut tipiga ega sigirlardan olingan avlodlarining yelin shakllarining o'zgarishi kuzatildi. Tadqiqotlarimizda monbelyard zotli sut-go'sht tipiga mansub I laktatsiyadagi sigirlarda kosasimon yelinli sigirlar go'sht-sut tipiga mansub tengqurlarinikiga nisbatan o'rtacha 6,3%-ga ortiqcha dumaloq yelin bo'yicha 6,3%-ga kam bo'lgan bo'lsa, etuk yoshdagi sigirlarda kosasimon shakldagi yelinli sigirlar foizi III laktatsiyada kosasimon yelin tipidagi sigirlar foizi tengqurlariga nisbatan 87,2%-ni tashkil qilib, dumaloq yelinli sigirlar foizi tengqurlariga nisbatan 6,7% ga kam bo'ldi.

Monbelyard zotli sigirlar qo'sh maxsuldorli yo'nalishda bo'lib, har ikkala guruhda ham tossimon yelin tipiga mansub sigirlar uchramaganligi aniqlandi. Sut-go'sht tipidagi sigirlarning yelin aylanasi o'rtacha I, II, III laktatsiya davrlarida 108,2;116,5;125,0 sm-ni tashkil qilib, tengqurlari go'sht-sut tipiga nisbatan 13,52;6,01; 12 sm-ga, uzunligi bo'yicha 4,31;1,3; 4,25 sm-ga, eni bo'yicha 3,42; 2,79; 3,48sm-ga, oldingi yelin qismining chuqurligi bo'yicha 2,74; 2,9;5,3 sm-ga, orqa qismi chuqurligi bo'yicha 3,9; 3,1;3,37 sm-ga, yelinning shartli hajmi bo'yicha 556,8; 119,28; 501,5 sm³ -ga, oldingi so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 1,1;1,05;1,16 sm-ga, orqa so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 0,72;0,66;0,82 sm-ga tengqurlari go'sht-sut tipiga mansub sigirlardan ortiqcha bo'ldi.

Shunday qilib, tadqiqotlar eksterer tana tuzilishidan qat'iy nazar, sigirlarning sut mahsuldorligi yelin shakliga bog'liqligini ko'rsatdi. Kosasimon yelin shakllariga ega sigirlarda sut mahsuldorligi dumaloq yelin shakllariga ega sigirlarnikidan barcha laktatsiyada yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Bu esa naslchilik podalarida sigirlarning maqbul yelin shakllari bo'yicha seleksiya ishlarini olib borish sermahsul sutbop podalar yaratishda va sigirlarning sut mahsuldorligini takomillashtirishda muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

1-jadval

Turli tana tuzilishiga ega sigirlarning yelin o'lchamlari, sm n=15

Yelin o'lchamlari	Sut-go'sht tipi		Go'sht-sut tipi	
	II	III	II	III
Yelin aylanasi	116,5±1,54	125,0±1,68	110,49±2,84	113,0±1,52
Uzunligi	38,5±0,47	43,75±0,54	37,2±0,35	39,50±0,36
Eni	31,0±0,24	35,91±0,29	28,21±0,17	32,42±0,18
Oldingi yelin qismining chuqurligi	25,5±0,52	30,5±0,47	22,6±0,41	25,4±0,41
Orqa qismi chuqurligi	28,5±1,74	31,37±2,62	25,4±0,40	28,33±0,43
Yelinning shartli hajmi, sm ³	3099,2	3621,94	2979,92	3116,44
Oldingi so'rg'ichlar uzunligi	7,80±0,05	8,0±0,03	6,75±0,08	6,84±0,04
Orqa so'rg'ichlar uzunligi	6,47±0,09	6,8±0,07	5,81±0,05	5,98±0,07



1-jadvalda ko'rinishicha, monbelyard zotli sigirlardan olingan qizlari sigirlarining II-laktatsiyasida sut-go'sht tipidagi sigirlarning tengqurlari go'sht-sut tipiga nisbatan yelin aylanasi 6 sm; yelin uzunligi 1,3 ($P>0,99$) va yelin eni 2,8 ($P>0,99$), yelinning oldingi qismi chuqurligi 2,9 sm, yelinning orqa qismining chuqurligi 3,1 sm ($P>0,99$), yelin shaklining hajmi 119,3 sm, oldingi so'rg'ichlar uzunligi 1,1 sm, orqa so'rg'ichlar uzunligi 0,7 sm, so'rg'ichlar diametri 0,3 sm, yelin indeksi 1,1% ($P>0,99$) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Bu ma'lumotlar yuqori sut mahsuldorligiga ega sut-go'sht tipidagi sigirlarda ularning yelin hajmiga, o'lchamlariga uzviy bog'liqligidan dalolat beradi. Shuningdek yuqori mahsuldorlikdagi sigirlar guruhida yelinning so'rg'ichlari ham maqbul ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu ularning mashinada sog'ish talablariga yaroqliligini ko'rsatadi. Bundan tashqari sut mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlar yelinining funksional xususiyatlari ham yaxshi darajada bo'ldi. Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarning dalolat berishicha yelinning indeksida va sut berish tezligida ham ko'rish mumkin. Bunday sigirlar zamonaviy sut sog'ish uskunalariga yaxshi darajada moslashganligidan dalolat beradi.

Bu esa ushbu yelin ko'rsatkichlari bo'yicha seleksiya ishlarini olib borish podadagi sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishga olib kelishidan dalolat beradi.

Xulosa

Tajribadan olingan ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin. Chetdan olib kelingan monbelyard zotli sigirlardan olingan avlodlarining sut mahsuldorligi sut-go'sht tipiga mansub sigirlarda tirik vazniga bog'liq.

Sut-go'sht eksterer konstitutsional tipiga mansub sigirlarda tengqurlari go'sht-sut tipiga nisbatan II, III-laktatsiya davrlarida sut miqdori II-laktatsiyada 121 kg ($P>0,99$), III-laktatsiyada 127 kg-ga ($P>0,99$) yuqori bo'ldi.

Tajribadan olingan ma'lumotlarni xulosa qilib, monbelyard zotiga mansub eksetrer konstitutsional sut-go'sht tipiga ega sigirlarni sermahsul sutbop podalarini yaratishda yelin ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda seleksiya ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirov M.E., Donaev X., Ashirov B.M., Soatov O., Ashirov B., Produktivnyy potencial korov golshtinskoy porody avstriyskoy porody seleksii. Sb.trudov Mejdunarodnoy konferensii. S. Solenoe Zaymische, 2018, S. 130-134.

2. Nosirov U.N. "Qoramolchilik" kitobi, Toshkent, 2001, 384 B.

3. Ro'ziyev R.I., Erdanova G.M. Donayev H.A., Islomov F.M. Sut-go'sht o'nalishdagi monbelyard zotli turli ishlab chiqarish tipidagi sigirlarni sut mahsuldorligi. Application and development of smart technologies in agriculture (May30, 2024.) Toshkent. – B.129-132.

4. Erdanova G.M. va Ruziev R.I., Sigirlar sut mahsuldorligining onalari mahsuldorligi bilan o'zaro bog'liqligi. "Chorvachilik va naslchilik ishi" jurnali. – Toshkent, 2024. – № 2 (36). – B. 11-12.